Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

SERJANTLAR TARKIBIDA KASBIY MOSLASHUVCHANLIK NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Jamolov Azizjon Axmatovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa unversiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi, Jangovar ta’minot kafedrasi boshlig‘i, ilmiy izlanuvchi, podpolkovnik
https://doi.org/10.5281/zenodo.23244741

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi kunda serjantlar tayyorlash oliy maktabida tahsil olayotgan harbiy xizmatchilarning turli toifalari o‘rtasida kasbiy moslashuvchanlik namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik jihatlari haqida va shu bilan harbiy xizmatchilarni nafaqat oliy harbiy-ta’lim muassasalarida, balki bevosita O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qism va bo‘linmalarida ham kasbiy moslashuvchanlik namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganishdagi hamda samaradorligini oshirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kasbiy, psixologik, ilmiy, faoliyat maqsadlari, harbiy xizmatchi, serjant, kasbiy moslashuvchanlik.

Serjantlarda kasbiy moslashuvchanlik namoyon bo‘lishini tahlil qilish uchun avvalo, harbiy xizmat muhitiga xos xususiyatlarni va ijtimoiy-psixologik holatlarni aniqlash lozim. Harbiy xizmatni tanlayotgan yoshlar armiyada xizmat qilishning burch va mas’uliyatini his qilishlari, harbiy xizmatga qadar hayotining ba’zi jihatlarini tark etishlari talab etiladi. Qurolli Kuchlar tizimida harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlarning yuqori darajadagi tartib-qoidalari ularning xatti-harakatlarini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Qurolli Kuchlar tizimida ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlar nisbatan tez sodir bo‘ladi, bu harbiy xizmatchilarning almashinuvining tez o‘zgarishi bilan bog‘liq (chaqiriluv va uning nihoyasiga yetishi, yangi chaqiruvning e’lon qilinishi).

Tadqiqotchi Y.R.Dorfman harbiy xizmatdagi kasbiy moslashuvchanlikni nafaqat ijtimoiy muhit, balki mehnat faoliyati sharoitlari bilan ham bog‘liqligini qayd etadi [1,3]. M.I.Dyachenko harbiy xizmatchilar kasbiy moslashuvchanligini harbiy xizmatchining yangi muhitga kirishi, kasbiy rolni, kasbiy muhitning normalari va munosabatlarini qabul qilish jarayoni deb ta’riflaydi [2,25]. Kasbiy moslashuvchanlik obyekti shaxs bo‘lganligi sababli, bu muammoning dolzarbligini belgilaydi. Shu boisdan serjantlarning kasbiy moslashuvchanligi o‘z vaqtida namoyon bo‘lishi birinchi navbatda uning professional tayyorgarligi bilan belgilanadi. Kasbiy moslashuvchanlik - bu amaliy, nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, shaxsga o‘z funksional vazifalarini yetarlicha yuqori darajada bajarishga imkon beradigan ko‘nikmalarni egallash orqali kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

J.M.Maslovaning fikriga ko‘ra, kasbiy moslashuvchanlik - bu shaxs o‘zi uchun yangi mehnat sharoitlarini qabul qiladigan ijtimoiy jarayondir. Bu jarayonda shaxs va mehnat sohasi moslashuvchi-moslashtiruvchi tizim bo‘lib, bir-biriga ta’sir qiladi. Mehnat jamoasiga (harbiy jamoaga) kirganda, shaxs ma’lum bir jamoaning kasbiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlari tizimiga kiradi, ushbu jamoaning ijtimoiy rollarini, qadriyatlarini, normalarini o‘zlashtiradi, o‘z faoliyatini jamoaning maqsad va

vazifalariga muvofiqlashtiradi hamda shaxs ixtiyoriy ravishda jamoa talablariga bo‘ysunadi [3,25]. D.V.Kaluginaning ta’kidlashicha, biror kishi ishga kirganda, u avvaldan o‘zining shaxsiy maqsadlari va xatti-harakatlarining motivlariga ega bo‘lib, ular asosida yangi jamoaga ma’lum talablarni shakllantiradi va o‘z navbatida jamoa ham o‘z maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o‘zining yangi xodimiga talablarni qo‘yadi. Ularning talablarini amalga oshirish jarayonida xodim (askar) va jamoa (harbiy qism) bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi, bir-biriga moslashadi, bu jarayon natijasida kasbiy moslashuv shakllanad. Demak, kasbiy moslashuv - bu shaxsiyat va kasbiy muhit o‘rtasidagi ikki tomonlama jarayondir [4,14]. Tadqiqotchi A.S.Kislitsinaning ta’kidlashicha, moslashuvchanlikning boshqa turlari singari, kasbiy moslashuvchanlikning ham o‘ziga xos muammolari mavjud. Kasbiy moslashuvchanlik muammolari mehnat sohasining kengligi, noto‘liqligi, farqlari, unga bo‘lgan qiziqish, mehnat faoliyati mazmuni, kasbiy muhitning ta’siri va shaxsning individual psixologik fazilatlariga bog‘liq [5,72].

1) Kasbiy moslashuvchanliik umumiy moslashish sxemasining ajralmas qismi sifatida qabul qilinadi va psixofiziologik, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy va kasbiy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

2)“Kasbiy moslashuvchanlik” tushunchasi lavozimga tayinlangan yangi harbiy xizmatchiga nisbatan qo‘llaniladi va harbiy xizmatchining tashkilotdan tashqaridan kelganligi yoki tashkilot ichida rotatsiya qilinganligi e’tiborga olinmaydi.Yuqorida ijtimoiy moslashuvchanlik muammosiga doir ba’zi tahlillar keltirib o‘tilgandi. Unga ko‘ra «ijtimoiy moslashuvchalik» va «kasbiy moslashuvchanlik» atamalari o‘rtasida bo‘linish chizig‘i mavjud. Gap shundaki, kasbiy moslashuvchanlik ishlab chiqarish sohasida, ma’lum bir mehnat faoliyati turidan ajralmagan holatda faqat moddiy manfaatlar bilan bog‘liq munosabatlarni o‘z ichiga oladi, ijtimoiy moslashuvchanlik esa hayotning turli jabhalariga, masalan, mamlakat aholisining doimiy o‘zgarib turadigan atrof-muhit sharoitlariga hech qanday iqtisodiy manfaatlarsiz moslashishi nazarda tutiladi. Ammo bir vaqtning o‘zida kasbiy va ijtimoiy moslashuvchanlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ushbu ikki jarayonning o‘zaro ta’siri natijasi butun jamiyatning moslashuvchanligida namoyon bo‘ladi.G.K.Aikinbayeva va A.S.Xasanovaning fikricha, yosh harbiy xizmatchilarning kasbiy moslashuvchanligi jarayonining muvaffaqiyatli kechishida jamoaning yangi xizmatchi uchun ichki resurslari, uning dastlabki sharoitlari asosiy rol o‘ynaydi. Kasbiy faoliyatga qadar yoshlar murakkab, ekstremal faoliyat uchun maxsus tarzda tayyorlanadi. Kasbiy faoliyatda yangi xodimning muvaffaqiyatli shakllanishi odatda o‘ziga xos moslashish jarayonlari bilan birga kechadi [6,12].

Tadqiqotchi V.A.Koritkovga ko‘ra, kasbiy moslashuvchanlik o‘zini ma’lum darajada kasbiy ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallashda, muayyan kasb uchun professional muhim fazilatlarni shakllantirishda, tashkilot xodimining o‘z kasbiga barqaror ijobiy munosabatini o‘rnatishda namoyon bo‘ladi. Bu kasbiy faoliyatni o‘zlashtirish, funksional vazifalarni sifatli bajarish va mehnat faoliyatida ijodkorlik uchun zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ifodalanadi [7,38].

Kasbiy moslashuvchanlik tezligiga V.N.Tsiginga ko‘ra, ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Turli toifadagi xodimlar uchun kasbiy moslashuvchanlikning optimal davri 1 yildan 3 yilgacha hisoblanadi. Mana shu vaqt oralig‘ida xodimning mehnat jamoasiga moslasha olmasligi ijtimoiy tartibsizlik fenomenini keltirib chiqaradi. O‘z navbatida bu kabi holatlar jamoaning samarali faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Odatda, kasbiy moslashuvchanlikka bag‘ishlangan adabiyotlarda moslashuvchanlikning bir necha xil turlari keltiriladi. E.A.Veryatkina o‘z tadqiqot ishida kasbiy moslashuvchanlikning to‘rtta turini keltiradi:

rad etilish;
konformizm;
mimikriya;

adaptiv individualizm. Agar ishga yangi qabul qilingan xodim o‘zining rad etilayotganligini his qilsa, tashkilotning qadriyatlarini qabul qila olmaydi. Bunday xodimlar bir necha oydan keyin ishlarini tashlab ketishadi. konformizm - tashkilotning meyorlari va qadriyatlarini to‘liq qabul qilishi, o‘zini ushbu tashkilotning bir bo‘lagi sifatida his qilishi bilan ifodalanadi. Ta’kidlash joizki, bunday ishchilar jamoaning asosiy qismini tashkil qiladi. Mimikriya (niqoblanish) bilan xodimlar tashkilotning asosiy meyorlari va qadriyatlarini qabul qilmaydilar, lekin ikkinchi darajalilariga rioya qilishadi. Adaptiv individualizm toifasi tashkilotning asosiy meyorlari va qadriyatlarini qabul qilishi, ikkinchi darajali meyorlarni bajarmaslik bilan tavsiflanadi.

S.H.Parkning ta’kidlashicha, barcha ishlarda bo‘lgani kabi harbiy xizmatchilarda kasbiy moslashuvchanlik kasbiy ko‘nikmalarni egallash, ishning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishdan iborat. Har bir yangi kelgan harbiy xizmatchi o‘ziga xos “shogirdlik” bosqichidan o‘tadi, uning shakli harbiy qismning xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi [8,209].

Harbiy kasbiy faoliyat maqsadlari, tashkil etilishi, mazmuni, texnologiyalari, vositalarining xususiyatlari;

harbiy kasbiy faoliyat olib boriladigan ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlarning o‘ziga xosligi.

Kasbiy moslashuvchanlikning ichki sharoitlari va omillariga:

moslashuvchanlik potensialining darajasi;

tana va organizmning rivojlanish va moslashish darajasi;

professional harbiy faoliyatga moslashish motivatsiyasining yetarli ekanligi takidlab o‘tgan.

Kasbiy va faoliyat sohasida – mehnat faoliyatiga (harbiy qism) moslashish maqsadlari, faoliyat mazmuni, faoliyat turi va intensivligi);

tashkiliy-huquqiy sohada – harbiy intizom talablariga, harbiy xizmatni o‘tash normalariga, qoidalariga va boshqalarga moslashish;

ijtimoiy-professional sohada – ijtimoiy rol va funksiyalarga, shuningdek, ijtimoiy mavqega moslashish (harbiy mutaxassis);

ijtimoiy-psixologik sohada – ijtimoiy-psixologik rol funksiyalariga, norasmiy normalar va qoidalarga, qadriyatlarga, harbiy jamoadagi munosabatlarga moslashish;

ijtimoiy sohada – harbiy xizmatchining mehnat faoliyati amalga oshiriladigan muayyan ijtimoiy vaziyatlarga moslashish. Harbiy xizmatchi faoliyatining yuqoridagi barcha subyektlari uning shaxsiy moslashish salohiyatiga ega ekanligini nazarda tutadi.

N.A.Nekrasovaning ta’kidlashicha, harbiy xizmatchining harbiy sohaga moslashishining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi nisbatan avtonom xususiyatga ega. Biroq, bu jarayonlar, ayniqsa, kasbiy faoliyatda, ijtimoiy-psixologik va boshqa sohalarda o‘zaro bog‘liqdir. Harbiy mutaxassisning ijtimoiy-psixologik moslashuvi kasbiy va faoliyatga moslashish muvaffaqiyatiga va umuman, mutaxassisning kasbiy moslashuvchanligiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. D.A.Sitmbetovga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning kasbiy moslashuvida kasbiy va faoliyatga moslashishdagi muvaffaqiyat asosiy rol o‘ynaydi. Binobarin, harbiy jamoada zamonaviy mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga kasbiy va psixologik tayyorlikni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, uni tashkiliy-

meyoriy, ijtimoiy-professional va ijtimoiy tayyorlashning ahamiyati kamaymaydi. Muallifga ko‘ra, kasbiy moslashuvchanlikning muvaffaqiyati bir qator etakchi omillarga bog‘liq:

1. Yosh jangchida moslashish darajasi uchun zarur ichki shartlarning mavjudligi;

2. Eng yosh askar, ofitserlar va umuman harbiy jamoaning kasbiy moslashuv jarayoniga diqqat-e’tiborni qaratish;

3.Moslashuv jarayonini amalga oshirish.

E.L.Smirnovning ta’kidlashicha, harbiy jamoada yosh mutaxassisning kasbiy moslashuvining muvaffaqiyati birinchi navbatda uning shaxsiy va boshqa psixologik xususiyatlariga bog‘liq. Jumladan, bu xususiyatlardan biri - yosh jangchining kasbiy faoliyatni amalga oshirishdagi hayot va faoliyat sharoitlari haqidagi g‘oyalariga mos kelishidir. AQSH harbiy akademiyasi tadqiqotchisi W.E.Uaytminning ta’kidlashicha, Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga tayyorgarlik ko‘rayotgan yigit ma’lum bir vaqtga qadar chaqiriluvchi hisoblanadi va chaqiruvdan keyin esa u aloqachi, piyoda, qoravul, o‘qchi, haydovchi, xo‘jalik-qurilish ishalarini bajaruvchi askarga aylanadi. Ushbu yangi sharoitda kelajakdagi faoliyatning tasviri va haqiqat o‘rtasidagi qarashlarning mos kelmasligi hissiy stressga olib keladi. Bu kabi salbiy holatlarni bartaraf etish uchun nafaqat yoshlarda kelajakdagi mutaxassislikning (ofitser) ijobiy qiyofasini yaratish, balki uni shu imidjga qarab tayyorlash (yangi kasbga muhabbatni shakllantirish, kasbiy mahoratini oshirish istagini uyg‘otish va boshqalar orqali amalga oshiriladi.

Aksariyat mualliflar kasbiy moslashuvchanlikni harbiy xizmatchining kasbiy rivojlanishiga va undagi ma’lum kasbiy muhim fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida tushunishadi. Yana bir AQSH tadqiqotchisi B.Shamirning yozishicha, harbiy xizmatda kasbiy moslashuvchanlik yangi rolga muvofiq o‘zini o‘zi identifikatsiya qilish, harbiy kasbiy muhitning madaniyati, meyorlari va qadriyatlarini o‘zlashtirishdan iborat. Tadqiqotchilar P.B.Bliyes va C.A.Kastroga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning kasbiy moslashuvchanligining o‘ziga xos xususiyati har doim ham ixtiyoriy tanlov va oldingi bilimlar bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Ayrim hollarda ekstremal va g‘ayrioddiy sharoitlar ham kasbiy moslashuvchanlikning namoyon bo‘lishiga xizmat qilishi mumkin. B.Z.Yuldshovning ta’kidlashicha, harbiy xizmatchilarning kasbiy moslashuvchanligini oshirishda oshirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ahamiyati katta bo‘lib, harbiy an’analarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi jamoalardagi axloqiy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish, bo‘linma a’zolari ongida o‘z kasbiga nisbatan mehr uyg‘otish, ular faoliyati samaradorligini oshirish, turli salbiy yo‘nalishdagi an’analar shakllanishini oldini olish imkonini beradi. Aksiologik tahlil asosida Qurolli Kuchlarda harbiy an’analarni funksiyasi, maqsadi va tuzilishi jihatidan quyidagicha tasniflash mumkin:

jangovar an’analar: harbiy qasamyod va burchga sodiqlik; janglarda jasurlik va qahramonlik; jangovar vaziyatda o‘zini idora etish va sovuqqon bo‘lish; janglarda xizmatdoshlariga yordam berish; jangovar bayroqqa sodiqlik, o‘z harbiy qismiga mehr;

harbiy turmush an’analari: harbiy or-nomusni saqlash; bo‘linmada ichki intizomni saqlash; harbiy xizmatchilar sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik; namunaviy harbiycha ko‘rinishni saqlash; harbiycha salomlashish qoidalariga qat’iy rioya etish;

ta’lim-tarbiyaviy an’analar: harbiy kasbni egallashga vijdonan yondashish; jangovar ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlik, ko‘maklashuv; harbiy intizomni ongli ravishda shakllantirish; vatanparvarlik, Vatan manfaati yo‘lida qurbon bo‘lishga tayyor turish.

Harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy an’analari jamiyat tomonidan tan olingan, davlat uchun ahamiyatli va Qurolli Kuchlar uchun hayotiy zaruriyat sifatidagi jihatlarga asoslanadi. Shu bilan birga,

mustaqil mamlakatlarning hamkorlik qilish jarayonidagi qadriyatlarida, oliy maqsadlarida, axloqiy norma va qoidalarda, ya'ni harbiy xizmatchilarning tinchlik va harbiy vaqtlarda, hayotiy faoliyatlarini tartibga solib boradi. Harbiy an'analar, kundalik va jangovar faoliyatda regulyativ, mobilizatsion, baholovchi kabi funksiyalarni bajaradi.

Shuningdek, tadqiqotchi L.U.Ravshanovning fikricha, har qanday faoliyat sharoitidagi o'zgarish o'zgaruvchan faoliyat shartlariga moslashishni ta'minlaydigan adaptatsiya mexanizmlarini "ishga tushishi"ga olib keladi. Harbiy faoliyat o'z o'rnida adaptatsiya mexanizmlari bilan ham alohida ajralib turadi, serjantlarda kasbiy moslashuvchanlikning namoyon bo'lishi muammosiga bag`ishlangan ushbu faslda mahalliy va xorijiy manbalarni tizimli tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi [9,66].

1. Serjantlarning kasbiy moslashuvchanligi, avvalo, harbiy mutaxassislikni o'zlashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi.

2. Qurolli Kuchlarda serjantlarning kasbiy moslashuvchanlig o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular kasbiy faoliyatga, chaqiriluvchini tarbiyalash va tayyorlash jarayoniga, harbiy jamoaning normalari, qadriyatlari va talablariga asoslanadi.

3. Serjantlarni harbiy kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashtirish, harbiy jamoaning muhitiga moslashish, yangi rolga kirish, kundalik va bo'sh vaqt kabi omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan murakkab tuzilishga ega jarayon sifatida ishlaydi. Bunda moslashuvchanlik harbiy xizmatchilarning individual psixologik xususiyatlari bilan harakterlanadi.

Xulosa: Serjantlarda kasbiy moslashuvchanlik sifatlarini shakllantirishda birinchi navbatda, shaxsning individual qiziqishlari, maqsadlari, motivatsiyasi, individual psixologik xususiyatlari alohida o'rin tutadi. Ba'zi tadqiqotchilarning qarashlariga ko'ra, ontogenezning dastlabki bosqichidagi psixik xususiyatlar va sifatlar bolani atrof-muhit talablariga moslashtirish orqali shakllanadi. Shuningdek, serjantlarda kasbiy moslashuvchanlikni shakllanishi nafaqat fiziologik salomatlik balki psixologik barqarorlik bilan kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Дорфман, Ю.Р. Оценка и оптимизация адаптации военнослужащих, проходящих военную службу по контракту, к условиям военно- профессиональной деятельности: автореф. дис. ... канд. мед. наук / Ю.Р. Дорфман. - Саратов: СГМУ, 2008. – С. 13.
2. Дьяченко, М.И. Адаптация к условиям воинской деятельности /М.И. Дьяченко, Л.А. Кандыбович // Современная военная психология: Хрестоматия / Сост. А.А. Урбанович. − Минск: Харвест, 2003. − С.25−34.
3. Маслова, Ж. М. Психологические факторы адаптации и профессионального роста сотрудников ГИБДД: автореф. дис…. канд. псих. наук / Ж. М. Маслова. — СПб.: СПбУ МВД РФ, 2010. − С.19.
4. Калугина, Д.В. Функциональное состояние организма и военно- профессиональная адаптация курсантов-штурманов в процессе обучения в военном авиационном институте: автореф. дис. ... канд. мед. наук / Д.В. Калугина. - Саратов: СГМУ, 2007. − С.14.
5. Кислицына, А.С. Особенности личностного адаптационного потенциала военнослужащих по призыву: дис. … канд. псих. наук. – Казань: Изд-во ЗАО «Новое знание», 2010. − С.72.

6. Aikinbayeva G. K., Khasanova A. S. THE ADAPTATION FEATURES OF YOUNG SOLDIERS TO MILITARY SERVICE //Россия и Европа: связь культуры и экономики. – 2015. – С. 12-14.
7. Корытков, В.А. Педагогическое обеспечение профессиональной адаптации военнослужащих по призыву в частях противовоздушной обороны Вооружённых сил России: дис. … канд. пед. наук. 2013. − С.38.
8. Park S. H. A Study on the Service Adaptation Process of Multicultural Soldiers: Focused on Ground Theory //The Journal of the Convergence on Culture Technology. – 2020. – Т. 6. – №. 1. – С. 209-214.
9. Ravshanov L.U. Harbiy rahbar – boshqaruv faoliyati imidjining psixologik xususiyatlari. Psixologik xizmat ko'rsatishda ta'limiy va kasbiy faoliyat uyg'unligini ta'minlashning innovatsion yondashuv masalalari // Respublika ilmiy–amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O'z MG Harbiy-texnik instituti, 2020. – 66-72.